


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI**  
**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**



Ganiyev A.A., Tachilin S.A., Xajiyev M.U., Koveshnikov S.V.

**«KUCHLI ELEKTRON QURILMALAR»**

**kurs ishi**  
**(o'quv uslubiy qo'llanma)**



UDK 621.337.1

KBK 32.85

Ganiyev A.A., Tachilin S.A., Xajiyev M.U., Koveshnikov S.V.  
«Kuchli elektron qurilmalar» fanidan kurs ishi - o‘quv uslubiy  
qo‘llanma. Toshkent: TDTU, 2023. - 64 b.

O‘quv uslubiy qo‘llanma 5310800 – «Elektronika va  
asbobsozlik (tarmoqlar bo‘yicha)» va 5313500 – «Yorug‘lik  
texnikasi» ta‘lim yo‘nalishlari (mutaxassislik) o‘quv rejasiga  
kiritilgan o‘quv fani dasturiga muvofiq tuzilgan

Ushbu o‘quv uslubiy qo‘llanma 5310800 – «Elektronika va  
asbobsozlik (elektronika sanoatida)», va 5313500 – «Yorug‘lik  
texnikasi» ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib,  
“Kuchli elektron qurilmalar” fanidan kurs ishining bajarish  
bo‘yicha qo‘llanmalar keltirilgan. Yuqoridagi yo‘nalishlarning  
“Davlat ta‘lim standarti”, “O‘quv rejasi” va “Namunaviy  
dastur”laridan foydalangan kurs ishining texnik vazifalarini tuzish  
shakli va mazmunga qo‘yilgan talablar aniqlandi. Kurs ishiga oid  
o‘quv (uslubiy) qo‘llanmalar ko‘rib chiqildi.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti  
Ilmiy-uslubiy kengashi 2022 yil “28” dekabr № 4 son qarori bilan  
nashrga ruxsat etildi.

Taqrizchilar: Saparov D. V. - f.-m.f.n., FTI katta ilmiy hodimi  
Xaydarov A.X. - f.-m.f.n., EAIChT kafedrasи dosenti

## MUNDARIJA

1. Kurs ishining maqsadi.....	5
2. Kurs ishining vazifasi.....	5
3. Kurs ishining mavzulari.....	5
4. Kurs ishining mavzusini tanlash.....	6
5. Hisob-tushuntirish xatining strukturasi va tarkibi.....	6
6. Kurs ishi tarkibiy elementlarining asosiy mazmuni.....	7
7. Kurs ishini rasmiylashtirish va uning hajmi.....	8
8. Bo‘lim va boblarni rasmiylashtirish va raqamlash.....	9
9. Hisobotning grafik qismi.....	10
10. Formula va tengliklarni rasmiylashtirish tartibi.....	11
11. Ilovalarni rasmiylashtirish tartibi.....	12
12. Kurs ishini tayyorlash va uning himoyasi.....	12
13. Kurs ishini topshirish.....	13
14. Kurs ishini baholash mezonlari.....	13
15. Kurs ishini bajarish bosqichlari.....	14
16. Texnik topshiriq va uni bajarish tartibi.....	14
17. Kurs ishini bajarish tartibi (rejası).....	15
1-Ilova.....	16
2-Ilova.....	17
3-Ilova.....	18
4-Ilova.....	19
5-Ilova.....	62
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.....	63

## **Kirish**

Ushbu o‘quv uslubiy qo‘llanmada motorlarning ta‘minoti uchun mo‘ljallangan impulsli o‘zgartirgichni parametrlarini hisoblash va loyihalash tartibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan. O‘zgartirgich elementlarini tanlash haqida ba‘zi ma‘lumotlar keltirilgan. Biroq, elektron elementlar doimiy ravishda takomillashib borishini hisobga olsak, kurs ishlarini bajarishda bu yetarli bo‘lmasligi mumkin va masalan, internet orqali ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilayotgan yangi elektron komponentlari qidirish kerak bo‘ladi. Elektr poyezdlarda kuchli elektron asboblardan to‘g‘rilagich, invertor, impulsli rostlagich, chastota va fazalar o‘zgartirgichlaridan foydalaniлади. Impuls o‘zgartirgichdan elektr poyezdlarda sinxron va asinxron tortish dvigatellarida kuchlanish va chastota o‘zgartirgichlari sifatida, impuls fazali rostlash sxemalarida foydalaniлади. Ushbu kurs ishi talabalarning “Kuchli elektron qurilmalar” fani bo‘yicha o‘tilgan bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirishi va mustahkamlanishi uchun mo‘ljallangan.

## **1.Kurs ishining maqsadi**

Kurs ishi talabalarning 5310800 – «Elektronika va asbobsozlik (tarmoqlar bo‘yicha » va 5313500 – «Yorug‘lik texnikasi» ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tilgan barcha fundamental va kasbiy fan kurslariga tayanib mustaqil bajaradigan ishidir.

U “kuchli elektron qurilmalar” fani bo‘yicha nazariy bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirishga va muhandislik muammolarini mustaqil hal qilishning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

## **2.Kurs ishining vazifasi**

Kurs ishining vazifasi analog va impulsli tarzda ichlaydigan qurilmalarni loyihalash masalalarining kompleks (majmuaviy) yechimini topishdan iborat. Bunda, talabalar mustaqil ravishda quyidagi masalalarning yechimini hal qilishadi:

- talabalar berilgan mavzu bo‘yicha loyihalashda maxsus texnik adabiyotlar va boshqa ma‘lumotlarni o‘rganadilar;
- loyihalanayotgan qurilmaning tarkibiy sxemasini tanlaydilar va asoslaydilar;
- kuchli elektron qurilmalarni loyihalashning zamonaviy kompyuter dasturlarini o‘zlashtirish, o‘zgartirgich elementlari va yo‘qotishlarini hisoblash, muhandislik muammolarining yechimini izlashda barqaror ko‘nikmalarini egallaydilar;
- bajarilgan ishda ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan kerakli elektron elementlar va ularning parametrlari haqidagi ma‘lumotlarni qidirish uchun internetdan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.
- loyihalashtirilayotgan qurilmaning turli rejimlaridagi vaqt diagrammalarini ishlab chiqadilar;
- bitiruv ishini topshirishga tayyoragarlik ko‘radilar

Ushbu maqsadlarga erishish uchun kurs ishining topshiriqlari har bir talaba uchun individual beriladi.

## **3. Kurs ishining mavzulari**

Quyidagi qo‘llanma "Tiristorli impuls o‘zgartirgichini hisoblash" mavzusidagi kurs ishi uchun tayyorlangan. Topshiriqning variantlari o‘qituvchi tomonidan beriladi. Shuningdek talabalar maslahatchi va ish

beruvchi korxonalar bilan kelishgan holda korxonalarning mavzulari bo‘yicha kurs ishini bajarishi mumkin.

#### **4. Kurs ishining mavzusini tanlash**

Kurs ishining muvaffaqiyatini aniqlaydigan muhim va mas‘uliyatli vazifalardan biri – tadqiqot mavzusini tanlashdir. Mavzularga qo‘yiladigan umumiylab – ularning dolzarbligi, ichlab chiqarish ehtiyojlari va muammolari bilan bog‘liqligidir. Ular hozirgi zamon talablari va sanoatning rivojlanish tendensiyalari istiqbollaridan kelib chiqishi zarur.

Kurs ishining mavzusi keng qamrovli nazariy va amaliy xususiyatga ega bo‘lishi, sanoat ichlab chiqarishini rivojlantirishning eng muhim vazifalarini qamrab olishi va ilmiy - ishlab chiqarish yo‘nalishida tadqiqotlar olib borishni nazarda tutishi lozim. Kurs ishining mavzusi muammoning zamonaviy holati va iqtisodiyot, biznes, ishlab chiqarish, ijtimoiy sohalar, fan, ta‘lim va madaniyatning istiqboliy rivojlanishini aks ettirishi kerak.

Mavzuning dolzarbligini asoslashda ushbu masala ustida tadqiqotlar olib borish nima uchun zarurligini, ishlab chiqarish bilan bog‘liq qanday muammolar bunga sabab bo‘lganini va tadqiqot yakunlari bo‘yicha erishilayotgan natijalar muammoni yechishga qanday ta‘sir ko‘rsatishini aniq bayon etib berishi lozim.

Kurs ishlarining mavzulari (topshiriqlari) kafedra tomonidan belgilanadi va ularni har o‘quv yilida yangilash tavsiya etiladi. Amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha maslahatchi-rahbar kafedra o‘qituvchilar tarkibidan tayinlanadi.

Kurs ishining mavzusini tanlashda rahbar va talaba quyidagilarga e‘tibor berishlari kerak.

Kurs ishining mavzularining (topshiriqlarining) yillik ro‘yxati kursning boshida e‘lon qilinadi. Kurs ishining mavzulari (topshiriqlari) kafedraning o‘quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi.

#### **5. Hisob-tushuntirish xatining strukturasi va tarkibi**

Hisob-tushuntirich xati, tanlangan qurilma variantini ishlab chiqishning barcha bosqichlari va ilmiy - texnik hujjatlarni rasmiylashtirishning tarkibi va qoidalarini o‘z ichiga oluvchi asosiy mazmuniy hujjat hisoblanadi. Hisob-tushuntirich xati quyidagi tarkibiy elementlarning keltirilgan ketma-ketligidan iborat bo‘lishi lozim:

- Titul saxifasi;
- Kurs ishining topshirig‘i;
- Kurs ishining tarkibi;
- Kirish qismi;
- Asosiy (hisob-kitob) qismi;
- Xulosa qismi;
- Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;
- Qisqartishlar ro‘yxati;
- Ilovalar.

## **6. Kurs ishing tarkibiy elementlarining asosiy mazmuni**

**1.Titul saxifasi** hisob-kitob va Tushuntirish yozuvining birinchi sahifasidir. Belgilangan shaklda amalga oshiriladi.

**2.Kurs ishi topshirigi** ish olib borish uchun asosiy yo‘riqnomadir. Topshiriq kurs ishi rahbari tomonidan beriladi. Topshiriqnini olgandan so‘ng, talaba unga o‘z imzosini qo‘yadi. Kurs loyihasi topshirigi namunasi 1-ilovada keltirilgan. U o‘z ichiga, kurs loyihasi bajarilayotgan fanning nomi, oliy o‘quv yurti, fakultet va kafedrasi haqidagi ma‘lumotlar, loyiha mavzusi, loyihani bajargan talaba haqidagi ma‘lumotlar, topshiriqning berilgan vaqt va rejadagi bajarilich vaqt, loyiha raxbarining ismi sharifi va familiyasi.

"Texnik chartlar" bo‘limida boshlang‘ich ma‘lumotlarning to‘la ro‘yxati keltiriladi; "Loyiha tarkibi"da ishlab chiqilishi va hisob-kitob qilinishi kerak bo‘lgan qurilmaga oid barcha savollar; "Loyihani rasmiylashtirish" bo‘limida bajarilgan chizmalar sanab o‘tiladi va ularning formatlari ko‘rsatiladi; "Adabiyotlar" bo‘limida, ushbu loyiha mavzusi bo‘yicha taklif etilayotgan ma‘lumotlar manbalari ro‘yxati keltiriladi. Topshiriq ilmiy-tadqiqot ishlanmalar, tajribaviy tadqiqotlar va shu kabilarni o‘z ichiga olishi mumkin. Topshiriq, talaba loyiha variantini tanlagandan keyin, kurs loyihasi rahbari tarafidan tasdiqlanadi.

**3.Kurs ishi tarkibi** (Mundarija) kerakli materiallarni izlashni osonlashtirish, shuningdek, ish bilan umumiylar tanishish va barcha bo‘limlar haqida fikr yuritish uchun mo‘ljallangan. Mundarija hisob-kitob va tushuntirish yozuvining matn qismidan boshlanadi.

**4.Kirish qismi** kurs ishi bag‘ishlangan masalalar va muammolarning hozirgi mazmunini tavsiflaydi. Kirish qismida ushbu ishning zarurligini

asoslash, uning bir qator shunga o‘xhash ishlardan farqi, ishlab chiqilayotgan mavzuning dolzarbliji va yangiligini, uni amalga oshirishning maqsadi va kutilayotgan natijalarini ko‘rsatish kerak.

**5. Asosiy (hisob-kitob) qismida** qurilmaning funksional yoki tarkibiy sxemasini tanlash va uni asoslash talab etiladi:

qurilmaning yoki uning qismlarini hisob - kitob qilish;

qurilma elementlarini hisob - kitob qilish, ayrim elementlarining turlari va nominallarini tanlash;

foydali ish koeffisientini hisoblash.

**6. Xulosa** qismi ishning asosiy natijalarini, mulohaza va takliflarni aks ettirishi kerak.

**7. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati** - barcha foydalanilgan (ko‘rilgan va o‘rganilgan) kitoblar, to‘plamlar va jurnallardagi maqolalar va boshqa materiallar asosida tuziladi. Qoida tariqasida, manbalar yozuvlar alifbo tartibida guruhlanganda, ro‘yxatlardagi materiallarni guruhashning alifbo tartibida qo‘llaniladi. Kitoblar ro‘yxatning boshida alifbo tartibida, keyin esa - jurnallar va to‘plamlardagi maqolalar joylashtiriladi. Bunda chet el manbalari bajarilayotgan ish tilidagi barcha manbalar ro‘yxatidan keyin alifbo tartibida joylashtiriladi. Ro‘yxatga faqat Tushuntirish yozushi matnida havolasi bo‘lgan manbalar kiradi. Ro‘yxatga kiritilgan har bir manba arab raqamlari bilan raqamlanadi va yangi qatorga yoziladi. Bibliografik ko‘rsatkich alohida sahifa(lar)da “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” sarlavhasi ostida beriladi. Sarlavhada raqam bo‘lmaydi.

**8. Ilovalar.** Hujjat matnini to‘ldiruvchi materiallar ilovaga joylashtirilishi mumkin. Ilovalar, masalan, hisob-kitoblar, elektr qism alohida zanjirlarning diagrammalari, foydalanilgan elektron elementlarning tavsiyalar, mikroelektron tizimning ishlashi uchun algoritmlar, mikrokontroller dasturining dastlabki matni, grafik materiallar va katta formatli jadvallar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Ilovalar yozuvning davomi sifatida uning keyingi varaqlarida rasmiylashtiriladi.

## **7. Kurs ishini rasmiylashtirish va uning hajmi**

1. Kurs ishining hajmi 30 betdan kam bo‘lmasligi kerak.

2. Kurs ishining matni A4 formatdagi qog‘ozda chetlarini, chap tarafdan 30 mm, o‘ng tarafdan 15 mm, yuqori va past tarafdan 20 mm o‘lchamda

bo‘lishi lozim. Kurs ishi varaqlarining pastiga tartib raqami qo‘yiladi, nuqtasiz va chiziqsiz.

3.Kurs ishining chizmalari (illyustratsiyasi), jadvallar, formulalar belgilangan talablar asosida bo‘ladi.

Jadval birinchi marta tilga olingan matndan keyin yoki keyingi sahifada darhol joylashtirilishi kerak. Jadval nomlanishi jadvalning tepasida, xatboshisiz joylashtirilishi kerak. Jadvalning nomi oxirida nuqta qo‘yilmaydi va bosh harf bilan boshlanadi. Agar jadval nomi ikki yoki undan ortiq satrni egallasa, u holda bir qator oralig‘i bilan yozilishi kerak. Jadvalning sarlavhasi birlikda ko‘rsatiladi. Ustun sarlavhalari markazlashtirilgan, satr sarlavhalari esa chapga tekislangan. Jadvalda asosiy matnga qaraganda kichikroq shrift o‘lchamida foydalanishga ruxsat beriladi.

4.Kurs ishining tushuntirish yozuvining grafik qismi hajmi A4 yoki A3 formatidagi kamida 2 varaqdan iborat bo‘ladi.

5. Matnli materialarni bajarish usuli - kompyuterdan chiqadigan chop etish moslamalari yordamida; Word matn muharririda matn terishda Times New Roman shrifti 14 o‘lchamda, interval 1,15 dan 1,5 gacha, tekislash - eni bo‘yicha, abzas - 1 sm.

6. Jadval va rasm sarlavhalari uchun Times New Roman shriftidan, 11 dan 14 bo‘lgan o‘lchamdan va bir interval abzasdan foydalanish tavsiya etiladi.

## **8. Bo‘lim va boblarni rasmiylashtirish va raqamlash**

Kurs ishining asosiy qismi boblarga, bo‘limlarga va kichik bo‘limlarga bo‘linishi mumkin. Agar kerak bo‘lsa, bolimlar kichik qismlarga bo‘linadi. Kurs ishining bo‘limlari va kichik bo‘limlari raqamlangan sarlavhalarga ega bo‘lishi kerak. Kichik bandlar, paragraflar qoida tariqasida, sarlavhalarga ega emas va raqamlanmaydi.

Strukturaviy elementlar sarlavhalarining (“MUNDARIJA”, “KIRISH”, “XULOSA”, “FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI” “ILOVALAR”) oxirida nuqta qo‘ymasdan, bosh harflar bilan, tagiga chizmasdan qator o‘rtasiga joylashtirilishi kerak. Kurs ishining har bir tarkibiy elementi va har bir bo‘limi yangi sahifadan boshlanadi. Kurs ishining asosiy qismining bo‘limlari va kichik bo‘limlari sarlavhalari matn chegarasidan boshlanib, tartib raqamidan keyin joylashtirilishi kerak, bosh harflar bilan, qalin shriftda yoziladi, tagiga chizilmaydi, oxirida nuqta qo‘yilmaydi. Sarlavhalarda tire qo‘yish mumkin emas.

Kurs ishining asosiy qismining bo‘limlari arab raqamlari bilan raqamlanadi (masalan, birinchi bo‘lim - 1. Quvvat manbalari), kichik bo‘limlar - ikki marta raqamlash bilan (masalan, birinchi bo‘limning birinchi qismi – 1.1 kommutatsiya quvvat manbalari), paragraflar (paragraflar) - agar kerak bo‘lsa, uch marta raqamlash bilan raqamlanadi (masalan - 1.1.1 Quvvat manbai filtrlarini almashtirish). Hisobotning tuzilmaviy elementlari (“MUNDARIJA”, “KIRISH”, “XULOSA”, “FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI” "ILOVALAR") raqamlanmaydi.

Kurs ishining har bir sahifasi to‘liq to‘ldirilishi kerak, bo‘sh joylar (qo‘sishimcha joylar) bo‘lmasligi kerak, hatto kichik bo‘lim yoki paragraf to‘ldirilgan bo‘lsa ham, keyingi bo‘lim yoki paragraf bitta bo‘sh qatordan keyin yoziladi. Kurs ishining faqat tarkibiy elementlari va bo‘limlari yangi sahifadan boshlanadi.

## **9. Hisobotning grafik qismi**

Kurs ishining illyustrasiyalarini rasmiylashtirish tartibi.

Illyustrasiya (grafik, chizma, diagramma, fotosurat)lar ko‘rish uchun qulay tarzda joylashtirilishi kerak. Illyustrasiyalar nomlangan bo‘lishi va zarur hollarda kurs ishining matnida tegishli paragrafida ularga izoh beruvchi ma‘lumotlar bayon etiladi hamda bayon etilgan joyning tugallangan nuqtasida tegishli illyustrasiyaning raqami ko‘rsatiladi. Illyustrasiyaning nomi uning ostiga yoziladi. Illyustrasiyaning turiga ko‘ra (grafik, chizma, diagramma, fotosurat) ketma-ketlikda arab raqamlari bilan belgilanadi. Masalan, 1.1-grafik, 2.1-chizma, 3.1-diagramma, 3.1-fotosurat kabi belgilanadi.

Kurs ishini tayyorlashda umumiy qoidalardan tashqari hisob-kitoblar va statistik jadvallarni to‘g‘ri va asosli ishlanganligiga ham e‘tiborni qaratish lozim.

Har bir hisob-kitobda tushuntirishlar asoslangan holda berilishi lozim. Jadval, diagramma yoki chizmalarining manbalari va nomi ko‘rsatilishi bilan birga, jadvaldan so‘ng albatta jadvaldagi ma‘lumotlarga tahliliy fiklar keltirilishi lozim bo‘ladi.

Xar bir jadval, diagramma yoki chizmalar alohida tartib bilan belgilab boriladi. Jumladan, jadval ma‘lumotlari jadvalning yuqori o‘ng tomonidan nomerlanib keyingi satr markaziga jadvalning nomi yoziladi va jadvaldan so‘ng uning manbasi ko‘rsatiladi.



## **10. Formula va tengliklarni rasmiylashtirish tartibi**

Matndagi formulalar puxta va aniq yozilgan bo‘lishi shart. Katta va kichik harflar, yuqori va pastki indekslar formulada aniq berilishi kerak. Formula uchun belgilarning o‘lchami quyidagicha belgilanadi: katta harflar va raqamlar 5-6 mm, kichik harflar 3 mm, daraja ko‘rsatkichlari va indekslari 2 mm dan kam bo‘lmasligi tavsiya etiladi. Tavsiya etilgan shrift Times New Roman, 10-14 pt.

Simvollarning ma‘nolari bevosita formulaning ostida ularning formuladagi ketma-ketligi bo‘yicha beriladi. Har bir simvolning ma‘nosini yangi qatordan berish lozim. Berilgan ma‘nolarning birinchi qatori "bu yerda" so‘zi va undan keyin ikki nuqta qo‘yiladi.

Tenglama va formulalar matndan alohida bo‘sh qatorlar bilan ajratib yoziladi. Agar tenglama bitta qatorga sig‘masa, sig‘magan qism tenglik belgisi (=) dan yoki qo‘shish (+), ayirish (-), ko‘paytirish (x), bo‘lish (: yoki /) belgilaridan keyin ko‘chirilishi kerak.

Kurs ishidagi formulalar (agar ular bittadan ko‘p bo‘lsa) paragraf doirasida arab raqamlari bilan belgilanadi. Formulaning raqami paragraf raqami va formulaning paragrafdagi tartib raqamidan tashkil topib, o‘zaro nuqta bilan ajratiladi. Bu narsa betning o‘ng tomonida formula bilan bir qatorda qavslar bilan ko‘rsatiladi. Biroq, ko‘p sonli formulalar bilan formulalarni raqamlashga ruxsat beriladi (masalan, - (1.1)).

Kurs ishining hisobotini tuzishda, umumiyligida qoidalardan tashqari, hisob-kitoblarning to‘g‘riliqi va asoslilikiga va elektron elementlar va ularning parametrlarini yoki ma‘lumotnomaga adabiyotidan boshqa ma‘lumotlarni tanlashga e‘tibor berish kerak. Har bir aniq holatda elementni yoki uning parametrini tanlash bo‘yicha tushuntirishlar berilishi kerak. Ma‘lumotlari yoki diagrammalarining manbalari va nomlarini ko‘rsatishdan tashqari, kamida tanlangan parametrning to‘liq nomini, uning raqamli qiymatini va o‘lchamini ko‘rsatish kerak. Ma‘lumot jadvalining ma‘lum bir qatorini ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Murakkab elementlarni mos yozuvlar materiallaridan (integral mikrosxemalar, ko‘rsatkichlar va boshqalar) tanlagan taqdirda, qurilmaning turini qisqacha ko‘rsatishdan tashqari, tanlangan murakkab elektron elementlarning batafsil parametrлari va xususiyatlari ko‘rsatilishi kerak.

## **11. Ilovalarni rasmiylashtirish tartibi**

Ilovalar ketma-ketligining tartibi kurs ishida ularga murojaat qilish tartibiga mos qelishi va foydalanish kulayligini ta‘minlashi kerak.

Har bir ilova yangi betning o‘ng yuqori burchagida qoraytirilgan harflar bilan yozilgan «Ilova» so‘zi bilan boshlanadi. Agar kurs ishida bittadan ko‘p ilova bo‘lsa, ular ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Masalan, "1-ilova", "2- ilova" va hokazo.

## **12. Kurs ishini tayyorlash va uning himoyasi**

Kurs ishining yakunlovchi bosqichida unga ijobiy taqriz berilib ish himoyaga tavsiya qilingandan so‘ng talaba Kurs ishining himoyasi uchun ish bo‘yicha taqdimot tayyorlaydi.

Yaxshi tayyorlangan taqdimot himoyaning ijobiy o‘tishining 50% ini ta‘minlaydi. Shuning uchun kafedra tomonidan talabalarga taqdimotni tayyorlashdagi asosiy talablar yetkazilishi kerak. Kurs ishining taqdimotida quyidagilar bo‘lishi kerak.

- Mavzuning nomi;
- Mavzuning dolzarbliji;
- Kurs ishining maqsadi va vazifalari;
- Tadqiqot ob‘ektining qisqacha tavsifi;
- Ishning qichqacha mazmuni, ishni bajarish davomida olingan asosiy natijalar;
- Kurs ishida qo‘llanilgan metod va metodologiyalar;
- Jadvallar, grafiklar, sxemalar, diagrammalar;
- Xulosalar.

Kurs ishining himoyasi muvaffaqiyatli o‘tishi talabaning o‘z fikrlarini aniq va ravshan, tushunarli va ravon ifoda etishi, tayyorlangan materiallarning sifati hamda ularni ishtirokchilarga yetkazib berish bilan belgilanadi. Kurs ishi video proektorda taqdim etiladi.

Taqdimot materiallari 50 slaydlardan oshmasligi kerak. Slaydlar raqamlangan bo‘lishi kerak. Bu esa taqdimotning yakunida ishtirok etuvchilarning savollar berishlarida slaydlarning raqami bilan bog‘lashlari uchun qulaylik yaratadi.

Birinchi slayd titul hisoblanib, titul slaydida Kurs ishining tituli aks ettiriladi. Keyingi slaydlarda ishning dolzarbliji, ishning maqsad va vazifalari va boshqa materiallarni kiritish mumkin.

Kurs ishini topshiruvchi talabaning taqdimoti 10-15 daqiqa davomida tinglanadi. Taqdimotdan so‘ng kurs ishi rahbarining taqrizi o‘qib eshittiriladi. Hay‘at a‘zolari tomonidan berilgan savollarga talaba aniq va tushunarli qilib javob berishi lozim. Rahbarning taqrizi bo‘yicha noroziliklar bo‘lsa himoyachi kamchiliklar to‘g‘rilanganligi to‘g‘risida gapirib o‘tishi lozim.

Kurs ishing himoyasi davomida talabaga berilishi mumkin bo‘lgan savollar mavzuga bog‘liq bo‘lishi, olib borilgan tadqiqotlar hamda ularning natijalari asosida bo‘lishi lozim. Savollar soni taqdimotning mazmuni va sifatiga bog‘liq bo‘ladi. Talabaninig hay‘at a‘zolariga bergen javoblari aniq va asosli bo‘lishi kerak.

### **13. Kurs ishini topshirish**

Kurs ishining to‘liq rasmiylashtirilgandan so‘ng talaba, rahbar, taqrizchi va kafedra mudiri tomonidan imzolanadi.

Kurs ishi himoyasiga 10-15 minut vaqt beriladi, bu vaqt ichida talaba mavzuning dolzarbligi, qurilma va asboblarning taxlili, ishlab chiqilgan qurilma, taklif etilayotgan yechimlar, kurs ishining ko‘rib chiqilayotgan masala, qurilmaning asosiy bloklarining hisobi to‘g‘risida so‘zlab beradi.

Kurs ishing talaba tomonidan kafedraning uch professor-o‘qituvchilardan iborat komissiyasi oldida himoya qiladi. Himoya vaqtida talaba bajarilgan ishlar haqida qisqacha ma‘ruza qiladi va ma‘ruzasini prezentatsiya bilan oydinlashtirib boradi. Komissiya bajarilgan ishining sifati va mazmunini, qilingan ma‘ruza va berilgan savollarga javoblarini, hisobga oldgan holda (5) va 100 balli sistemada baholaydi.

Kurs ishidagi prinsipial xatolar aniqlansa kurs ishining himoyasi to‘xtatiladi va oxirigacha ishlab chiqish uchun talabaga qaytarib berilada yoki kurs ishi uchun yangi topshiriq beriladi.

### **14. Kurs ishini baholash mezonlari**

«A‘lo» (5) baho 90 -100 ball to‘plagan talabalarga qo‘yiladi.

Buning uchun talaba: kurs ishida berilgan topshiriqlar bo‘yicha aniq xulosa va qaror qabul qilishi; natijalar mohiyatini tushunishi, tahlil qila olishi; bajarilgan mavzu va yechilgan masalalarining mohiyatini tushunishi, bilishi, aytib berishi va ular haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi lozim.

«Yaxshi» (4) baho 70-89 ball to‘plagan talabalarga qo‘yiladi.

Buning uchun talaba: kurs ishining mohiyatini anglashi, ular bo‘yicha mustaqil mushoxada yurita olishi; bajarilgan mavzu va yechilgan masalalarning mohiyatini tushunishi, bilishi, aytib berishi va ular xaqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi lozim.

«Qoniqarli» (3) baho 60-69 ball to‘plagan talabalarga qo‘yiladi.

Buning uchun talaba: yechilgan masalalarning mohiyatini tushunishi, bilishi, aytib berishi va ular xaqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi lozim.

«Qoniqarsiz» baho 0-59 ball to‘plagan talabalarga qo‘yiladi.

Bunday talabalar: kurs ishining topshiriqlarini belgilangan muddatlarda to‘liq bajarmagan va aniq tasavvurlarga ega bo‘lmagan talabalardir.

## 15. Kurs ishini bajarish bosqichlari

Kurs ishining topshirig‘i darslar jadvaliga ko‘ra birinchi hafta oralig‘ida kafedra o‘tiquvchi – maslahatchisi tomonidan beriladi.

Topshiriqni berilishida, kurs ishining maqsadi va vazifalari, bajarish va himoyalash tartibi, loyihalashda talabalar foydalanishi mumkin bo‘lgan o‘quv va texnik materiallarga bag‘ishlangan kirish suhbatি o‘tkaziladi.

**Birinchi nazorat** muddatigacha, talabalar ishining 25% ni (adabiyotlar bilan ishslash, tarkibiy sxemani yaratish) bajarishi kerak.

**Ikkinci nazorat** muddatigacha, ishining 50%, ya‘ni, asosiy sxemani tuzish va butun qurilmaning energetik hisob-kitoblari tugallanadi.

**Uchinchi nazorat** muddatigacha, ishining barcha hisob-kitoblari bajarilib, ayrim elementlarning turlari va nominallari tanlangan bo‘lishi lozim, bu loyiha bajarilishining 75% ni tashkil etadi.

**To‘rtinchi nazorat** muddatigacha, tushuntirish xati yozilishi va kurs ishining grafik ishlari bajarilgan bo‘lishi kerak. Kurs ishining ustida ichlash davomida, talabalar maslahatchi bilan kelishilgan nazorat jadvali bo‘yicha kamida to‘rtta maslahat darslariga qatnashishi lozim.

Bajarilgan va rasmiylashtirilgan kurs ishi, himoyadan 3-5 kun oldin maslahatchiga tekshirish uchun topshiriladi. Eslatmalar tuzatilgan kurs ishiga maslahatchi qo‘l qo‘yadi va kurs ishining dastlabki himoyasiga ruxsat beriladi.

## 16. Texnik topshiriq va uni bajarish tartibi

Mavzular bo‘yicha aniq texnik topshiriqlar kafedra uslubiy seminarida har yili tasdiqlanadigan ro‘yxatdagi o‘qituvchi-maslahatchilar tomonidan beriladi.

## **17. Kurs ishini bajarish tartibi (rejasi)**

1. Kurs ishi uchun topshiriq bilan tanishib chiqing, foydalanish sharoitlarini aniqlang, xavfsizlik va dizayn talablarini, umumiy va boshqa foydalanish talablarini aniqlang.
2. Ishlab chiqilgan impuls o‘zgartirgichning kirish va chiqish parametrlarini va boshqa parametrlarini aniqlang.
3. Impuls o‘zgartirgichning quvvat qismining sxemasini tuzing va uning rejimlarini hisoblang
4. Foydalaniladigan quvvat elementlarining turini tanlang
5. Kommutatsiya zanjirini loyihalang va uning elementlarini hisoblang
6. Ketma-ket va parallel ravishda ulangan yarim o‘tkazgichli asboblar sonini hisoblang
7. Impuls o‘zgartirgichning quvvat bloklarida tok va kuchlanishni taqsimlash elementlarining zarur parametrlarini hisoblang
8. Impuls o‘zgartirgichning yo‘qotishlarini hisoblang.
9. Zarurat bo‘lsa, loyiha parametrlarini aniqlashtiring, yordamchi elementlar va bloklarni (quvvat manbai, ortiqcha yuklardan himoya qilish elementlari va boshqalar) hisoblang va loyihalashtiring.
10. Ishning grafik qismini bajaring:
  - 1."Ishlab chiqilgan impuls o‘zgartirgichning blok-sxemasi" varag‘i (A4 formati);
  - 2."Ishlab chiqilayotgan impuls o‘zgartirgichning to‘liq prinsipial sxemasi" (A4 yoki A3 formati);
  - 3.Ishchi vaqt diagrammalari (A4 yoki A3 format);
  - 4."FIKini to‘ldirish koeffitsiyentiga bog‘liqlik grafigi" varag‘i (A4 formati).
11. Foydalaniladigan barcha elementlarning spetsifikatsiyasini tuzing.
12. Yakuniy hisobotni tuzing.

“REM” kafedrasida 202 \_\_\_\_ yil “\_\_\_” sentyabr № \_\_\_\_ son yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan

### Kurs ishi

#### “Kuchli elektron qurilmalar” fani bo‘yicha

Guruh \_\_\_\_\_ Talaba \_\_\_\_\_ Rahbar \_\_\_\_\_

### TOPSHIRIQ

**1. Kurs ishining nomi:** «Tiristorli impuls o‘zgartirgichni hisoblash»

**2. Dastlabki ma‘lumotlar:** Variant № 28

Nomer variant №	Iste‘mol kuchlanishi; $U_d$ (B)	Dvigatelning nominal kuchlanishi; $U_{dv}$ (B)	Dvigatel toki; $I_p$ (A)	Dvigatel soni; $N_d$	Tiristorning yopilish vaqt; $t_q$	Havoni sovutish tezligi; T (M/c)	atrof – muhit harorati; $t_a$ ( $^{\circ}\text{C}$ )	tok va kuchlanish diagrammasini tuzish uchun tol‘dirish koefitsiyenti; $\lambda$	kommutatsiya koefitsiyenti (ishonchliliq) k
1	3000	1500	175	8	8	6	40	0.85	1.4

**3.Qo‘llanmalar:**

- 1.A.S. Maznyov, A.V. Plaks. «Raschyot shirotno-impulsnogo preobrazovatelya».
- 2.Metodicheskoye ukazaniye – PGUPS, 2004.
- 3.Zamyatin V.Ya., Kondratev B.V. «Moshniye poluprovodnikoviye pribori. Tiristori». 4.Spravochnik – M.: Radio i svyaz, 1988.
- 5.Birzniyeks L.V. «Impulsnije preobrazovateli postoyannogo toka» – M.: Energiya, 1974

**4.Grafik qismining tarkibi:**

- 1."Ishlab chiqilgan impuls o‘zgartirgichning blok-sxemasi" varag‘i (A4 formati);
- 2."Ishlab chiqilayotgan impuls o‘zgartirgichning to‘liq prinsipial sxemasi" (A4 yoki A3 formati);
- 3.Ishchi vaqt diagrammalari (A4 yoki A3 format);
- 4."FIKini to‘ldirish koefitsientiga bog‘liqlik grafigi" varag‘i (A4 formati).

**5.Hisoblash-Tushuntirish yozuvi:** 1.Titul varoq, 2.Topshiriq, 3.Mundarija, 4.Kirish, 5.Tushuntirish yozuvi, 6.Xulosa, 7.Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

**6.Qo‘srimcha ma‘lumotlar va ko‘rsatmalar** \_\_\_\_\_

**7. Kurs loyixasi (ishi)ni topshirish muddati:**

	Topshiriq berish	1 boshqarish	2 boshqarish	Himoya
Reja				
Fakt				

Rahbar \_\_\_\_\_ Talaba \_\_\_\_\_



**2-Ilva**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
TEXNIKA UNIVERSITETI**

**“Raqamli elektronika va mikroelektronika” kafedrasи**

**“Kuchli elektron qurilmalar” fanidan**

**«Tiristorli impuls o‘zgartirgichini hisoblash»  
mavzusidagi kurs ishining hisob-tushuntirish yozuvi**

Bajardi: \_\_\_\_\_ -guruh talabasi \_\_\_\_\_

Rahbar: \_\_\_\_\_

imzo

F.I.O

Komissiya bahosi \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ball )

Komissiya raisi \_\_\_\_\_

imzo

F.I.O

Komissiya a‘zolari \_\_\_\_\_

imzo

F.I.O

Komissiya a‘zolari \_\_\_\_\_

imzo

F.I.O

**Toshkent-20 \_\_\_\_**

### Kurs ishining variantlari

N <sub>Ω</sub>	Istemol kuchlanishi U <sub>d</sub> (V)	Dvigatelning nominal kuchlanishi U <sub>dv</sub> (V)	Dvigatel toki I <sub>r</sub> (A)	Dvigatel soni N <sub>d</sub>	Tiristorni yopilish vaqtı t <sub>q</sub> (mks)	Havoni sovutish tezligi T (m/s)	Atrof muhit harorati t <sub>a</sub> (°S)	Tok va kuchlanish diagrammasini tuzish uchun to'ldirish koefitsiyenti λ	Kommutsasiya koefitsiyenti (ishonchiligi) k
1	3000	1500	170	8	7	5	40	0.9	1.5
2	3000	1500	165	6	9	6	35	0.85	1.6
3	3000	1500	160	4	8	7	30	0.9	1.4
4	3000	1500	155	8	6	8	25	0.85	1.5
5	3000	1500	150	6	8	6	40	0.9	1.6
6	3000	1500	145	4	7	5	40	0.85	1.4
7	2800	1400	170	8	9	6	35	0.9	1.5
8	2800	1400	165	6	8	7	30	0.85	1.6
9	2800	1400	160	4	6	8	25	0.9	1.4
10	2800	1400	155	6	8	6	40	0.85	1.5
11	2800	1400	150	8	7	5	40	0.9	1.6
12	2800	1400	145	4	9	6	35	0.85	1.4
13	2600	1300	170	8	8	7	30	0.9	1.5
14	2600	1300	165	6	6	8	25	0.85	1.6
15	2600	1300	160	8	8	8	40	0.9	1.4
16	2600	1300	155	4	7	6	40	0.85	1.5
17	2600	1300	150	8	9	5	35	0.9	1.6
18	2600	1300	145	6	8	6	30	0.85	1.4
19	2400	1200	170	8	6	7	25	0.9	1.5
20	2400	1100	165	4	8	8	40	0.85	1.6
21	2400	1500	160	8	7	6	40	0.9	1.4
22	2400	1500	155	6	9	5	35	0.85	1.4
23	2400	1400	150	8	8	6	30	0.9	1.5
24	2400	1300	145	4	6	7	25	0.85	1.6
25	2200	1100	170	8	7	5	40	0.9	1.5
26	2200	1100	165	6	9	6	35	0.85	1.6
27	2200	1100	160	4	8	7	30	0.9	1.4
28	2200	1100	155	8	6	8	25	0.85	1.5
29	2200	1100	150	6	8	6	40	0.9	1.6
30	2200	1100	145	4	7	5	40	0.85	1.4

## MUNDARIJA

### Kirish

1. Boshlang‘ich ma‘lumotlar. Kurs ishining mazmuni
2. Elektrovozlarning elektr jihozlarining asosiy parametrlari
- 2.1. O‘zgaruvchan tok tortish dvigatellarini boshqarish tizimi
- 2.2. Kuchlanishni boshqarishning funksional sxemasi va zanjir yuklamasining asosiy parametrlari
3. O‘zgartirigichning sxemasi, tiristorlarni boshqarish algoritmi, elementlardagi tok va kuchlanish diagrammalari
4. Kommutatsiya zanjiri elementlari va parametrlarini hisoblash
  - 4.1. Kommutator kondensatorining sig‘imini hisoblash
  - 4.2. Kommutatsiya zanjiri reaktorlarining induktivligini hisoblash
  - 4.3. Maksimal ruxsat etilgan chastotasini aniqlash
5. O‘zgartirgichning tashqi tavsiflarini hisoblash. Filtr parametrlarini hisoblash
6. Filtr parametrlarini hisoblash
  - 6.1. Kirish filtrini hisoblash
  - 6.2. Chiqish filtrini hisoblash
7. Yarim o‘tkazgichli asboblarning sonini hisoblash
- 7.1. Ketma-ket ulangan yarim o‘tkazgichli asboblar sonini hisoblash
- 7.2. Parallel ulangan yarim o‘tkazgichli asboblar sonini hisoblash
8. Tiristorlar va diodlar uchun himoya elementlarining parametrlarini aniqlash
  - 8.1. Kuchlanish bo‘lgichlarini hisoblash
  - 8.2. To‘yinish reaktorini hisoblash
9. Tiristorning ishlash tavsiflarini hisoblash
10. O‘zgartirgichning FIKni hisoblash
  - 10.1. Kuchli yarimo‘tkazgichli asboblardagi yo‘qotishlar
  - 10.2. Reaktorning og‘irligini aniqlash

Xulosa

Ilovalar

Adabiyotla r

## Kirish

Ushbu kurs ishida tortish elektr motorlarida kuchlanishni zonaviy-fazali rostlash bilan o‘zgaruvchan tok elektrovozini boshqarish tizimining impuls rostlagichi quvvat zanjirini hisoblash tartibi ko‘rib chiqiladi.

Quvvat zanjirining konfiguratsiyasini ko‘rib chiqish, boshqaruv tizimining asosiy elektr jihozlarining parametrlarini tanlash va aniqlash, to‘g‘irlovchi-invertor o‘zgartirgichini sozlash, tashqi tavsiflarini va elektrovozning tezlik tavsiflarini hisoblash tartibi ko‘rsatilgan.

Elektr poyezdlarda kuchli elektron asboblar to‘g‘rilagich, invertor, impuls rostlagich, chastota va faza o‘zgartirgichlarida foydalaniladi. Impuls rostlagichlar elektr poyezdlarda sinxron va asinxron tortish dvigatellarida kuchlanish va chastota o‘zgartirgichlari sifatida, impuls fazali rostlash sxemalarida foydalaniladi. Ushbu kurs ishi talabalarning “Kuchli elektron qurilmalar” fani bo‘yicha o‘tilgan bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirishi va mustahkamlanishi uchun mo‘ljallangan.

### 1. Boshlang‘ich ma‘lumotlar

Nomer variant №	Iste’mol kuchlanishi; $U_d$ (B)	Dvigatelning nominal kuchlanishi; $U_{dv}$ (B)	Dvigatel toki; $I_p$ (A)	Dvigatel soni; $N_d$	Tiristorni yopilish vaqtி; $t_q$ (MRC)	Havonisovutish tezligi; T (M/c)	atrof – muhit harorati; $t_a$ (oC)	tok va kuchlanish diagrammasini tuzish uchun to‘ldirish koyeffitsiyenti; $\lambda$	kommutatsiya koeffitsiyenti (ishonchliliq) k
1	3000	1500	175	8	8	6	40	0.85	1.4

### 2.Elektrovozlarining elektr jihozlarining asosiy parametrlari.

#### 2.1.O‘zgaruvchan tok tortish dvigatellarini boshqarish tizimi

“Kuchli elektron qurilmalar” fanidan kurs ishining maqsadi talabalarga elektr jihozlarining asosiy parametrlarini tanlash, o‘zgaruvchan tok elektrovozlarining elektr zanjirlarining tavsiflarini hisoblash va sxemalarini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni singdirishdir.

Kurs ishi uchun topshiriq quyidagi boshlang‘ich qiymatlarni o‘z ichiga oladi: kontakt tarmog‘idagi tok turi - o‘zgaruvchan, elektrovozning tok qabul qiluvchisidagi nominal kuchlanish  $U_e = 25$  kv, chastota  $f = 50$  Gs;


$N_d$  - tortish dvigatellari soni va  $G_0$ , - o‘qdagi yuklama; nominal quvvat -  $P$ ,  $kVt$ , tortish dvigateling nominal kuchlanishi -  $U$ ,  $V$ ; nominal rejimda

elektrovozning tezligi  $V_H$ , km/soat; qo‘zg‘alishning doimiy susayish koeffitsiyenti  $\beta_0$ ; qo‘zg‘alishning eng kichik susayish koeffitsiyenti  $\beta_{\min}$ ; elektr tormozlanish - regenerativ.

Elektr zanjirining sxematik diagrammalari, tortish dvigatellarini boshqarish sxemalari va elektr poyezd asosiy kaliti ВЛ85 elektr poyezdlarning sxemalariga o‘xshash tarzda amalga oshiriladi.

Elektrovoz elektr zanjirining soddalashtirilgan sxemasi 2.1- rasmida ko‘rsatilgan.


Tortish elektr motorlarida (TEM) kuchlanishni o‘zgartirish uchun kontaktsiz zonalarni boshqarish tizimi qo‘llaniladi. Tortish va tormoz rejimlarida TEMda to‘rt zonali kuchlanishni yumshoq boshqarish to‘g‘rilagich-inverter o‘zgartirgichi tomonidan amalga oshiriladi. Elektrovozning har bir qismi uchta to‘g‘rilagich-inverter o‘zgartirgichi bilan jihozlangan, ularning har biriga tortish elektr motorlarining ikkita parallel guruhi ulangan. Tezlikni boshqarish doirasini kengaytirish uchun TEM magnit oqimini ularning qo‘zg‘alish chulg‘amlarini tutashtirish orqali bosqichma-bosqich boshqarish qo‘llaniladi.



2.1-rasm. Elektr poyezd elektr zanjirining soddalashtirilgan sxemasi

## 2.2 Kuchlanishni boshqarishning funksional sxemasi va zanjir yuklamasining asosiy parametrlari.

Elektr poyezdlarda (EP) ishlataladigan energiyani o'zgartirish tizimlarining tuzilishi, umuman olganda, tok turi va ta'minot tarmog'ining kuchlanish darajasi, o'zgartirgich davri va tortish motorining turiga qarab belgilanadi. 2.2 - rasmida (DC – direct current) o'zgarmas tok EP-da ishlataladigan kuchlanishni boshqarish tizimining funksional sxemasi ko'rsatilgan.



2.2–rasm. Elektr poezdlarda ishlataladigan kuchlanishni boshqarish tizimining funksional sxemasi

Impuls o'zgartirgich yordamida tortish motorlarini ishga tushirish jarayonida ularning terminallaridagi o'rtacha kuchlanish ma'lum minimal qiymatdan nominalgacha o'zgaradi.

Bir invertorga ketma-ket ulangan tortishish motorlarining soni:

$$n_d = \frac{U_d}{U_H} \quad (2.1)$$

$$n_d = 3000 / 1500 = 2$$

## Paralel tarmoqlar soni

$$a_{\Delta} = \frac{N_{\Delta}}{n_{\Delta}} \quad (2.2)$$

$$a_{\Delta}=8/2=4$$

500 kVt dan ortiq tortish dvigatelining o‘ramlarining qarshiligi:

$$r_{\Delta} = 0,04 \frac{U_{\text{H}}}{I_p} \cdot k_{\text{пэ}}, \quad (2.3)$$

Bu yerda:  $k_{\text{pe}}$  ekspluatasiya yuklanish koyeffitsiyenti:  $k_{\text{pe}}=1,3\dots1,5$ ;  $k_{\text{pe}}=1,4$  ni olamiz

Quvvati 500 kvt gacha bo‘lgan tortish motorining o‘ramlarining qarshiligi

$$r_{\Delta} = \left( 0,03 + \frac{6}{P_{\text{H}} + 100} \right) \cdot \frac{U_{\text{H}}}{I_{\text{H}}} \quad (2.4)$$

Hisoblash uchun namuna:

$$I_{\text{H}}=175/1,4=125 \text{ A}$$

Tortish dvigateli chulg‘amining quvvati:

$$P_{\text{dv}}=U_{\text{dn}} * I_{\text{H}}$$


$$P_{\text{H}}=1500*125=187,5 \text{ kVt}$$

Shunda:

$$r_{\Delta} = \left( 0,03 + \frac{6}{P_{\text{H}} + 100} \right) \cdot \frac{U_{\Delta H}}{I_{\text{H}}} = \left( 0,03 + \frac{6}{187,5 \cdot 10^3 + 100} \right) \cdot \frac{1500}{125} = 0,36 O\Omega$$

Bu yerda  $-P_{\text{H}}$ ,  $I_{\text{H}}$  tortish dvigatelining kuchi va quvvatining nominal qiymati;

Parallel tarmoqlarning har birida ketma-ket ulangan tortish dvigatellari soni funksional sxemaning turini belgilaydi. Bunday holda, avtomatik tavsifga ( $\lambda=1$ ) kirgandan so‘ng, qurilma terminallaridagi kuchlanish nominal bo‘lishi kerakligini yodda tutish kerak. (2.3-rasm)



2.3-rasm. Parallel tarmoqlarning har birida ketma-ket ulagan tortish dvigatellarning joylashuvi

Tortish dvigatellarini  $I_r$  toklarda ishga tushirish nolga teng tezlikda boshlanadi. Bu holda yuk bo'yicha kuchlanish tushishining minimal qiymati

$$\Delta U = (n_d r_d + r_{L_c}) I_p + n_d \Delta U_{\text{ш}}, \quad (2.5)$$

Bu yerda:  $r_{L_c}$  - tekislovchi reaktorning o'ram qarshiligi.  $r_{L_c} = 5 \cdot 10^{-2}$  Om; filtr (dastlabki hisob-kitoblarda siz  $r_{L_c} = 5 \cdot 10^{-2}$  Omni olishingiz mumkin);  $\Delta U_{\text{ш}}$  - tortish motorining cho'tkalariga kuchlanish tushishi;


$$\Delta U_{\text{ш}} = 2 \text{ Volt}$$

bo'lsa

$$\Delta U = (2 \cdot 0,36 + 0,05) \cdot 175 + 2 \cdot 2 = 139 \text{ B}$$

### 3. O‘zgartirgichning sxemasi. Tiristorni boshqarish algoritmi. Toklar va kuchlanishlar diagrammalari.

O‘zgartirgichning sxematik diagrammasi 3.1–rasmida keltirilgan.



3.1-rasm. O‘zgartirgichning sxematik diagrammasi

VS1 – asosiy tiristor

$C_k$  – kommutatsiyalovchi kondensator

$L_k$  – kommutatsiyalovchi reaktor


VS2 – kommutatsiyalovchi tiristor

$VD_2$  –  $C_k$  zanjirni qayta zaryadlashni tayyorlovchi diod


$VD_0$  – teskari diod

$L_c$  – tekislovchi reaktor

Zanjirning dastlabki holati: VS1 va VS2 yopiq, kommutatsiya kondensatorining kuchlanishi kirish kuchlanishiga teng, yuklamadan o‘tayotgan tok  $TД$ -OB- $VD_0$ - $L_k$ - $L_c$  konturi bo‘yicha induktivlikda to‘plangan energiya hisobiga oqadi (3.2-rasm.).




3.2-rasm. Zanjirning dastlabki holati



3.3-rasm. VS1-ga boshqarish signalini berilgandagi holati


VS1-ga boshqarish signalini berilganda (3.3-rasm.): VS1 tiristori ochiladi va  $VD_0$  diodidagi tok oqimi kamayishni boshlaydi. VS1 tiristordan o‘tayotgan tok yuklama tokiga teng bo‘lganda,  $VD_0$  diodi yopiladi va yuklama manbaga ulanadi. Bundan tashqari, kommutatsion kondensatorni qayta zaryad qilish sxemasi hosil bo‘ladi. Kondensatorni zaryad qilish konturi 3.4-rasmida ko‘rsatilgan.




3.4-rasm. Kondensatorni zaryad qilish konturi

$L_k-C_k$  zanjirining xususiy tebranishlari vaqtida kondensator qutblari ma'lum miqdorgacha qayta zaryadlanadi. Bunday holda, asosiy tiristor orqali o'tayotgan tok  $I_n$  va  $i_c(t)$  toklarning yig'indisiga teng bo'ladi:  $i_{VS1}=I_n+i_c(t)$

VS1 tiristorini yopish uchun tiristor VS2 ochiladi:  $C_k$  kondensator razryadlashni boshlaydi, buning natijasida tiristor orqali tok nolgacha kamayadi va u yopiladi. Tiristor VS1 yopilgandan so'ng, kondensator boshqa kontur orqali razryadlashni davom ettiradi (3.5-rasm.).




3.5-rasm. VS1 yopilganda kondensatorni razryadlash konturi



3.6-rasm. Kondensatorni zaryadlash konturi

Kondensator toki pasayishni boshlaydi va yuklama toki qiymatiga erishilganda, VD1 diodi yopiladi. Ammo kondensatordagi kuchlanish hali ham kirish kuchlanishidan kamroqdir. Natijada, kondensatorni zaryadlash konturi hosil bo‘ladi (3.6-rasm).



3.7-rasm. Kondensatorni zaryadlash davri

Kondensatorni zaryad qilish davri (3.7-rasm): Kondensatordagi kuchlanish kirish kuchlanishiga teng bo‘lganda, tiristor VS2 yopiladi va oldingi holatiga keladi. Kondensator kirish kuchlanishigacha zaryadlanadi.

#### **4. Kommutasiya zanjiri elementlari va parametrlarini hisoblash**

Bir operasiyali tiristorlarga asoslangan elektr poyezdlardagi impuls kengligi modulyasiyali o‘zgartirgichlarda yuqori tezlikka ega tiristorlardan foydalanish zarur. Bunday holda, o‘zgartirgichning elektrovoz yoki motorli vagonga joylashishini ta‘minlaydigan parametrlarini olish mumkin.

Jadval 1.  
Bir operatsiyali tiristorlar

Тип Type	V <sub>FPM</sub> / V <sub>RFM</sub>	I <sub>FPM</sub> / I <sub>RFM</sub>	I <sub>TAV1</sub> (T <sub>C</sub> , °C)	I <sub>TFMS</sub>	I <sub>FSM</sub> 10ms	i <sup>2</sup> t	V <sub>TM</sub> /I <sub>TM</sub>	V <sub>TO</sub>	r <sub>T</sub>	(dV/dt) <sub>cm</sub>	(dU <sub>D</sub> /dt) <sub>cm</sub>	V <sub>ce</sub>	I <sub>ce</sub>	T <sub>jmax</sub>	R <sub>th(j-c)</sub> typ	t <sub>tr</sub>	t <sub>d</sub>	F	w	Корпус	Охладители Heatsinks	
	V	mA	A	A	kA	A <sup>2</sup> s10 <sup>3</sup>	V/A	V	mΩ	A/μs	V/μs	V	mA	°C	°C/W	μs	μs	kN	kg			
<b>Таблеточное исполнение</b>																						
ТАИ123-200	600-1300/7	30/150	200(93)	314	2.45	30	2.60/628	1.40/1.50	1000	500,1000	2.7300	125	0.070	3.2	8-16		6	0.07	PT21	O123		
ТАИ123-250	600-1300/7	30/150	250(92)	393	2.70	36	2.20/785	1.20/0.95	1000	500,1000	2.7300	125	0.070	3.2	16-25							
ТАИ133-400	600-1300/7	50/250	400(94)	628	5.00	125	2.75/1256	1.60/0.65	1000	500,1000	2.7300	125	0.035	3.2	8-16		100.10	PT31	O242,O143,0243, O343,OM103,OM104			
ТАИ133-500	600-1300/7	50/250	500(93)	785	5.50	151	2.10/1570	1.10/0.55	1000	500,1000	2.7300	125	0.035	3.2	16-25							
ТАИ143-630	600-1300/7	80/500	630(88)	989	9.00	405	2.50/1978	1.20/0.65	1000	500,1000	2.7300	125	0.028	3.2	8-16		160.16	PT41	O242,O143,0243, O343,OM103,OM104			
ТАИ143-800	600-1300/7	80/500	800(86)	1256	10.5	551	2.05/2512	1.10/0.25	1000	500,1000	2.7300	125	0.028	3.2	16-25							
ТАИ153-800	2400-2800/7	120/1000	800(87)	1256	16.0	1280	2.25/2512	1.35/0.45	1000	500,1000	2.5300	125	0.020	4.0	50;63							
ТАИ253-800*	600-2000/7	120/1000	800(87)	1256	16.0	1280	2.80/2512	1.70/0.65	1000	500,1000	2.7300	125	0.020	4.0	8;10 для 6-10КА 12.5-20 для 12-20КА	240.50	PT53-1	O153, O253				
ТАИ153-1000	2400-2800/7	120/1000	1000(81)	1570	16.0	1280	2.20/3140	1.20/0.35	1000	500,1000	2.5300	125	0.020	4.0	50;63							

## 2-jadval Tez tiklash tugmasi diodlari

**БЫСТРОВОССТАНАВЛИВАЮЩИЕСЯ ДИОДЫ  
ТАБЛЕТОЧНОЙ КОНСТРУКЦИИ**

**PRESS PACK  
FAST RECOVERY DIODES**

Тип Type	V <sub>FPM</sub>	I <sub>FPM</sub>	I <sub>F(AV)</sub> (T <sub>C</sub> , °C)	I <sub>TFMS</sub>	I <sub>FSM</sub> 10 ms	i <sup>2</sup> t	V <sub>FM</sub> /I <sub>FM</sub>	V <sub>TO</sub>	r <sub>T</sub>	t <sub>tr</sub>	T <sub>jmax</sub>	R <sub>th(j-c)</sub> typ	F	w	Корпус	Реком.охладители. Rec. heatsinks
	V	mA	A	A	kA	A <sup>2</sup> s10 <sup>3</sup>	V/A	V	mΩ	μs	°C	°C/W	kN	kg		
<b>Ø выпрямительного элемента 24мм</b>																
ДЧ323-200	3000-4600	50	200(93)	400	3.0	45	3.20/628	1.40	2.70	5.0	140	0.08	4.5	0.091	PD22	O123
ДЧ443-200^	3000-4600	50	200(85)	314	2.7	36	3.50/628	1.40	2.70	300 <sup>1</sup> ; 160 <sup>2</sup>	140	0.08				
ДЧ523-200	600-1600	30	200(100)		3.0	45	2.00/628			1.0;1.6;2.0	150	0.08				
ДЧ323-250	1600-2400	50	250(100)	500	4.5	101	1.85/785	1.10	0.96	450 <sup>1</sup> ; 250 <sup>2</sup>	150	0.08	4.5	0.067	PD21	O123
ДЧ443-250^	1600-2600	50	250(95)	393	4.0	80	2.10/785	1.10	0.096	4.0	150	0.08				
ДЧ523-250*	600-1600	30	250(100)		3.5	61	2.10/785			1.6; 2; 2.5	150	0.08				
<b>Ø выпрямительного элемента 32мм</b>																
ДЧ333-400	1600-2400	50	400(100)	800	6.5	211	2.30/1256	1.20	0.88	450 <sup>1</sup> ; 160 <sup>2</sup>	150	0.04	10	0.180	PD32	O143, OM103
ДЧ443-400	1600-2600	40	400(95)	628	6.5	211	2.50/1256	1.20	0.88	4.0	150	0.04				
ДЧ533-400*	600-1600	40	400(100)		6.5	211	2.10/1256			2.0; 2.5	150	0.04				
<b>Ø выпрямительного элемента 40мм</b>																
ДЧ443-250^	4000-6000	70	250(120)	400	4.0	80	3.50/785	1.60	0.60	1500 <sup>1</sup> ; 280 <sup>2</sup>	140	0.035				
ДЧ443-320^	3000-4500	70	320(119)	512	5.0	125	3.00/1005	1.35	0.60	1000 <sup>1</sup> ; 250 <sup>2</sup>	140	0.035				
ДЧ343-500	3000-3600	50	500(100)	785	10.5	551	3.00/1570	1.55	0.90	5.0	150	0.035	16	0.240	PD42	O342,O243, OM103, OM104
ДЧ443-500^	1600-2500	60	500(120)	800	12.0	720	2.00/1570	0.95	0.50	500 <sup>1</sup> ; 160 <sup>2</sup>	150	0.035				
ДЧ343-800	600-1800	40	800(100)	1600	12.5	781	2.80/2500	1.30	0.60	4.0;5.0;6.3;8.0	175	0.035				
ДЧ343-1000	600-1800	40	1000(100)	2000	14.5	1051	2.30/3140	1.20	0.35	5.0;6.3;8.0	175	0.035				
<b>Ø выпрямительного элемента 56мм</b>																
ДЧ453-630*	1600-2200	85	630(100)		11.0	605	2.80/1980			1.6; 2; 2.5; 3.2	150	0.020				
ДЧ353-800	3000-4600	50	800(93)	1600	9.5	451	3.50/2500	1.40	0.84	6.3	140	0.020	24	0.550	PD53	O153, O253
ДЧ453-800^	3000-4600	100	800(90)	1280	16.0	1280	3.20/2512	1.40	0.84	1900 <sup>1</sup> ; 700 <sup>2</sup>	140	0.020				
ДЧ453-1000^	1600-2500	70	1000(100)	1600	25.0	3125	2.00/3140	1.10	0.50	1200 <sup>1</sup> ; 600 <sup>2</sup>	150	0.020				
<b>Ø выпрямительного элемента 76мм</b>																
ДЧ273-2000	1400-2200	150	2000(100)		32.0	2120	2.10/6280			5.0;6.3;8.0	140	0.011	45	1.300	PD73	O173,O273, OM107,OM207, OM108
